

RAQAMLI IQTISODIYOT VA SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT BOZORIGA

TA'SIRI

Matyakubov Zikrullo Muhammadjon o'g'li

Namangan davlat universiteti

Iqtisodiyot fakulteti buxgalteriya hisobi yo'nalishi 2 kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20178520>

Annotatsiya: Raqamli iqtisodiyot dunyo taraqqiyotini mutlaqo yangi izga olib kirib bormoqda. Hozirgi vaqtda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari tobora ko'proq raqamli texnologiyalarga bog'liq bo'lmoqda. Internet tarmog'ining hayotimizga chuqur kirib kelishi, ma'lumotlarni tezkor ishlab chiqish va uzatish imkoniyati, virtual ofis va masofaviy ish shakllari, bulutli texnologiyalar jadal rivojlanmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida har bir kishidan zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, innovatsion g'oyalar, tanqidiy fikrlash va tobora yangilanib borayotgan bilimlarni tezda o'zlashtirish talab etiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, mehnat bozori, innovatsion kasblar, raqamli transformatsiya, masofadan ishlash, axborot texnologiyalari, kasb o'zgarishi, inson kapitali, zamonaviy ta'lim, mehnat migratsiyasi, yangi iqtisodiyot.

Аннотация: Цифровая экономика выводит развитие мира на совершенно новый уровень. В настоящее время все секторы экономики все больше зависят от цифровых технологий. Глубокое проникновение интернета в нашу жизнь, возможность быстрой обработки и передачи информации, виртуальные офисы и формы удаленной работы, облачные технологии стремительно развиваются. В условиях цифровой экономики от каждого требуется эффективное использование современных технологий, новаторские идеи, критическое мышление и быстрое освоение постоянно меняющихся знаний.

Ключевые слова: цифровая экономика, искусственный интеллект, рынок труда, инновационные профессии, цифровая трансформация, удаленная работа, информационные технологии, профессиональные изменения, человеческий капитал, современное образование, трудовая миграция, новая экономика.

Abstract: The digital economy is taking the world's development to a completely new level. Currently, all sectors of the economy are increasingly dependent on digital technologies. The deep penetration of the Internet into our lives, the ability to quickly process and transfer information, virtual offices and remote work forms, cloud technologies are rapidly developing. In the conditions of the digital economy, everyone is required to effectively use modern technologies, have innovative ideas, critical thinking and quickly master the ever-changing knowledge.

Keywords: Digital economy, artificial intelligence, labor market, innovative professions, digital transformation, remote work, information technologies, professional change, human capital, modern education, labor migration, new economy.

KIRISH

Sun'iy intellekt texnologiyalari esa raqamli iqtisodiyotning eng muhim harakatlantiruvchi kuchiga aylangan. Sun'iy intellekt deganda inson ongiga xos bo'lgan – anglash, o'rganish, tahlil qilish, bashorat qilish va qaror qabul qilish kabi kognitiv jarayonlarni kompyuter va raqamli tizimlarga singdirish orqali yuqori darajada murakkab vazifalarni mustaqil bajaruvchi algoritmlar va dasturlar to'plami tushuniladi. Sun'iy intellekt yordamida mashinalar ham to'plangan katta hajmdagi ma'lumotlar asosida xulosa chiqarishi, oldindan prognozlar bera olishi, tibbiyotdan

tortib, ishlab chiqarishgacha bo'lgan ko'plab sohalarda insonga “aqli ko'makchi” bo'lib xizmat qilmoqda. Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar birgalikda mehnat munosabatlari, kasbiy kompetensiyalar, malakalar va butun mehnat bozoriga sezilarli darajada ta'sir yetkazmoqda. Yangi kasb va faoliyat turlari paydo bo'lishi, mehnat bozorida an'anaviy yo'nalishlar tashqarisida mutlaqo yangi talablarga egali ish turlari yuzaga chiqmoqda. Bu esa, har bir insondan zamon bilan hamqadam bo'lib, doimiy o'z ustida ishlash, raqamli savodxonlikni oshirish va sun'iy intellekt imkoniyatlarini puxta o'zlashtirishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Raqamli iqtisodiyotda sun'iy intellekt eng avvalo ishlab chiqarish, logistika, moliya, bank, sog'liqni saqlash kabi yirik tarmoqlarda avtomatlashtirish darajasini oshirmoqda. Avvallari faqat inson tomonidan bajariladigan ko'plab funksiyalar, hozirda sun'iy intellekt yordamida jadal va ishonchli yuklatilmoqda. Masalan, ishlab chiqarish jarayonlaridagi turli ehtiyot qismlarni yig'ish yoki sifatni nazorat qilish, bank sektorida kreditlarni avtomatik tahlil qilish va tez ruxsat berish, kichik analogiy va bashoratlar tuzish sun'iy intellekt yordamida amalga oshirilmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasida esa sun'iy intellekt asosidagi virtual yordamchilar, chat-botlar, aqli o'qituvchilar va xizmati konsultantlar ortib bormoqda. Bunday tub o'zgarishlar mehnat bozorida ham sezilarli tendensiyalarni yuzaga chiqarayapti. Yangi davrda kasblarni raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalari asosida avtomatlashtirish natijasida an'anaviy va oddiy kasblarga ehtiyoj borgan sari kamaymoqda. Takrorlanuvchi va standart ishlarni sun'iy intellekt ko'proq va ishonchli bajarayotgani tufayli bu jarayonda inson ta'sirini keraksizga aylantirmoqda. Ammo, yuqori darajada ijodiy yondashuv, innovativ tafakkur, emotsional intellekt, kommunikatsiya, yetakchilik va orqali muloqot ko'nikmalarini talab etuvchi kasblar esa, aksincha, dolzarblashmoqda [1].

Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi turli kasb va lavozimlarga nisbatan yangi mezonlarni tiklamoqda. Dasturchilik, ma'lumotlar analitikasi, kibermudofaa, raqamli marketing, innovatsion muhandislik, tizimli boshqaruv va sun'iy intellekt muhandisligi kabi kasblarga talab bardavom va yuqori bo'lib qolmoqda. Texnologiya bilan chambarchas bog'liq bo'lgan sohalarning ahamiyati oshib borayotganligi sababli zamonaviy kadrlar uchun kompleks muammo yechimi, mantiqiy tahlil, tashabbuskorlik va fikrlash moslashuvchanligi asosiy kompetensiyalar sifatida ajralib turadi [2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot masofadan ishlash, freelancing, muvaffaqiyatli onlayn hamkorlik kabi muqobil bandlik shakllarini ommalashtirdi. Mehnat bozori bu orqali an'anaviy ofis mehnati va doimiy ish joyiga borish ehtiyojini kamaytirmoqda. Ishchi kuchi endi global va keng geografik chegaralardan chiqib, xalqaro miqyosda harakat qilish imkonini bermoqda. Sun'iy intellekt asosidagi platformalar turli mamlakatlarda joylashgan ish beruvchilarga uydan turib xizmatigizni ko'rsatish, xalqaro loyihalarda qatnashish imkonini yaratmoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellekt asosidagi platformalar odamlarning qobiliyati va malakalarini tez, aniq baholash orqali ularni mos va yuqori samaradorlikka ega loyihalarga jalb etishga yordam bermoqda. Ayni paytda, sun'iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan sohalarda an'anaviy kasblarni yo'qotish ehtimoli kuchaymoqda. Lekin yangi kasblar, ularning malakasi va qamrovi ham ko'payib, yangi imkoniyatlar ochilmoqda. Bu tendensiyalarning kuchayishi ijtimoiy va iqtisodiy muvozanat, kasbiy tengsizlik, yoshlar bandligini ta'minlash, kambag'allik va bandlik orasidagi ziddiyatlarni to'g'ri hal qilishda davlat va jamiyat oldiga muhim vazifalar qo'ymoqda.

Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda o'sishi natijasida yangi kasblarning tezda paydo bo'lishiga guvoh bo'lyapmiz. Hozirgi zamonda “data scientist”, “big data analyst”, “robototexnika muhandisi”, “virtual haqiqat dizayneri”, “blokcheyn dasturchisi”, “ux/ui mutaxassisi” kabi kasblarda ishlaydigan yoshlar ko'paydi. Zamonaviy mehnat bozori bu jarayonda insondan o'z bilim va ko'nikmalarini tez va samarali yangilab, yangi raqamli muhitga moslashishni talab etmoqda [3].

Raqamli iqtisodiyotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun har bir inson doimiy ilm olishga, xorijiy tillarni o'rganishga, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashni puxta egallashga, tanqidiy va kreativ fikrlash muhitida bo'lishga intilishi zarur. Sun'iy intellektni o'zlashtirish, raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan ilg'or dasturlar va algoritmlarning ishlash prinsiplarini anglash zamonaviy kasblarning muhim talabi bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, sun'iy intellekt jadal ishlatilayotgan ixtisoslashgan tarmoqlarda inson qadri va aqliy mehnatga talab oshmoqda. Tibbiyot, ta'lim, san'at, dizayn, huquq, psixologiya, sotsiologiya kabi sohalarda inson tafakkuri va ijodkorlik qisqartiruvchilar texnologiyalardan ustun turadi. Chunki sun'iy intellekt algoritmlari emotsional intellekt, kreativ tafakkur, muloqot va chuqur hissiy tushunchalarni to'liq egallay olmagan. Oilaviy maslahat, bolalar tarbiyasi, ijtimoiy psixologiya singari sohalarga sun'iy intellekt texnologiyalari yordamchi sifatida kirib kelmoqda, ammo yetakchi rol insonda qolmoqda. Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot natijasida mehnat bozorida kasblarning tarkibi doimiy ravishda o'zgarib, mutaxassislar har doim zamon bilan hamnafas bo'lishi talab qilinmoqda. Raqamli savodxonlik, IT kompetensiyalari, dasturlash, internet xavfsizligi, mediasavodxonlik, sun'iy intellekt imkoniyatlarini to'liq tushunish, “soft skills” deb ataladigan kommunikativ va kreativ ko'nikmalar kundalik hayotda ham, ishlab chiqarishda ham asosiy o'ringa chiqadi. Raqamli iqtisodiyotda sun'iy intellekt asosida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar ham mavjud. Sun'iy intellekt asosida avtomatlashtirish, ayniqsa, kichik va o'rta malakali kasblar uchun yangi bilimlarni o'zlashtirish, ta'lim olish va kasbga qayta yo'naltirish jarayonlari ommaviy bo'lishini ta'minlashi kerak. Aks holda, aholi bandligini ta'minlash, kasbiy noaniqliklar va daromadlar nomutanosibligiga olib keluvchi ijtimoiy muammolar keskinlashishi mumkin. Davlatdan va jamiyatdan zamonaviy ta'lim va malaka oshirish infratuzilmasi, ijtimoiy kafolatlar, yangi kasb va loyihalarga muvaffaqiyatli moslashish uchun tizimli qo'llab-quvvatlash talab etiladi. Ayni vaqtda, raqamli iqtisodiyotda inson kapitalining ahamiyati mislsiz ortdi. Innovatsion tafakkur, fikrlash moslashuvchanligi, IT ko'nikmalari, xorijiy tillar, zamonaviy menejment, kreativ va konstruktiv kommunikatsiya har qanday sohada muvaffaqiyat kalitiga aylanyapti. Inson kapitali bozor iqtisodiyotining bosh mezoniga aylanib, ijtimoiy taraqqiyot uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda [4].

Raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt davlat boshqaruvi, siyosiy va iqtisodiy islohotlar, aholining bandligi hamda zamonaviy kasblarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochmoqda. Raqamli transformatsiya orqali davlat xizmatlari soddalasmoqda, innovatsion loyihalar va ilg'or texnologiyalar asosida yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. O'zbekiston ham, dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlari singari, raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanishga intilmoqda, yoshlarning zamonaviy kasblarga o'qitilishi, IT-park va digital loyihalarning kengayishi bevosita yangi iqtisodiy taraqqiyotga yo'naltirilgan. Yangi davrda doimiy kasbiy rivojlanish, ijodkorlik va ilg'or texnologiyalarni qo'llash, innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish, zamonaviy tashkilotlarda inson

omili hal qiluvchi omil bo'lib qolmoqda. Aynan insonning yuqori aqliy salohiyati, intellektual rivoji, eng muhimi, doimiy o'rganuvchi va o'zini rivojlantirishga intiluvchi shaxs bo'lishi raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt muhiti uchun asosiy strategik resursga aylangan. Sun'iy intellekt va raqamli transformatsiyaning tezkor o'zgarishlari o'z navbatida ijtimoiy barqarorlik, ijtimoiy himoya va zamonaviy kasblarga tezkor moslashish mexanizmlarini takomillashtirishni, davlat va xususiy sektor hamkorligini, innovatsion ta'lim dasturlarini, zamonaviy kasb va loyihalarning ommalashishini ham talab etadi. Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirish, kasb va texnologiyalarni yangilash, yoshlarni ilg'or texnologiyalarga o'qitish, axborot va sun'iy intellekt savodxonligini oshirish uchun zamonaviy platformalarni joriy qilish muhim ahamiyatga ega. Raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt rivojlanar ekan, mehnat bozorining tashqi ko'rinishi, sifat darajasi, mehnat bozorida raqobat va bandlik tuzilmasi ham doimiy o'zgarib, innovatsion tafakkurli, kompetensiyalarga boy, intellektual yetuk va zamonaviy texnologiyalarga ochiq insonlarni yetishtirish muhimlashib bormoqda. Sun'iy intellekt va raqamli muhit bugungi va ertangi kun uchun eng zamonaviy, har tomonlama rivojlangan, bilimdon va tajribali insonlarni yetishtirishni talab qilmoqda [5].

Xulosa

Raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri mislsiz va chuqur. Sun'iy intellekt yordamida kasblar va lavozimlar tubdan yangilandi, yangi kasblar paydo bo'ldi, an'anaviy kasblar qisqarmoqda yoki mutlaqo o'z yo'nalishini o'zgartyapti. Raqamli iqtisodiyotda har bir inson doimiy o'qib-o'rganishga, texnologiyani puxta egallashga, tanqidiy va kreativ fikrlashga intilishi zarur. Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosidagi mehnat bozori har bir fuqarodan moslashuvchanlik, innovatsion tafakkur va zamonaviy kuchli ko'nikmalar talab qilmoqda. Kelajagi raqamli va sun'iy intellektga asoslangan iqtisodiyotda inson kapitali, kreativlik, kompleks muammolarni hal qilish qobiliyati, zamonaviy texnologiyalarni tez va samarali o'zlashtira olish kabi muhim jihatlar muvaffaqiyat garoviga aylanadi. Raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan to'liq foydalanish – taraqqiyot, ijtimoiy baraka va zamonaviy jamiyat qurilishining asosiy zaminidir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Brynjolfsson E., McAfee A. (2014), “The Second Machine Age”, W.W. Norton & Company
2. Schwab K. (2017), “The Fourth Industrial Revolution”, Crown Business
3. Davenport T., Ronanki R. (2018), “Artificial Intelligence for the Real World”, Harvard Business Review
4. Susskind D., Susskind R. (2015), “The Future of the Professions: How Technology Will Transform the Work of Human Experts”, Oxford University Press
5. Shafiev S. (2021), “Raqamli iqtisodiyot va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ahamiyati”, “Ilm ziyo” nashriyoti
6. Karimov K. (2022), “Sun'iy intellekt: imkoniyatlar va xavflar”, “Ozbekiston Milliy axborot agentligi”
7. Bukin I., Islomov A. (2020), “Raqamli iqtisodiyot va zamonaviy mehnat bozori”, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar”
8. Akramov I., Qosimova M. (2023), “Mehnat bozori rivojining zamonaviy asoslari va raqamli transformatsiya”, “Fan va taraqqiyot”
9. Tapscott D. (2016), “Blockchain Revolution”, Portfolio